



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “20” noyabr

BUYRUQ № 195

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-114- son qaroriga muvofiq, milliy statistika tizimiga sifatni boshqarishning ilg'or tizimlarini joriy etish hamda ishlab chiqaruvchilar narxlari statistikasini shakllantirish bo'yicha statistika uslubiyotini yanada takomillashtirish maqsadida, **BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024- yil 30- apreldagi 83- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar narxlari indekslarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom” (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom)ga ilovaga muvofiq qo'shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor

**B. Begalov**

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti huzuridagi  
Statistika agentligining  
2024- yil "10" *may* 2024- yil *195* son buyrug'iga  
ILOVA

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarini ishlab  
chiqaruvchilar narxlari indekslarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizomga  
kiritilayotgan qo'shimchalar**

1. Uslubiy nizomning 9- bandi quyidagi tahrirda ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“Tayanch korxonalar tanlanmasini shakllantirish Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi bilan hamkorlikda Uslubiy nizomga 3-ilovada keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.”;

2. Uslubiy nizomning 45- bandi quyidagi tahrirda ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“O'lchash tizimlarini shakllantirish Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi bilan hamkorlikda Uslubiy nizomga 3-ilovada keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.”;

3. Uslubiy nizom quyidagi tahrirda 77- band bilan to'ldirilsin:

“Statistika agentligining tarmoq boshqarmalari (ichki foydalanuvchilar) uchun narxlar indeksi to'g'risidagi ma'lumotlar Statistika dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan reja-jadval asosida taqdim etiladi.”;

4. Uslubiy nizom quyidagi tahrirda 3-ilova bilan to'ldirilsin:

““Qishloq, o‘rmon va baliqchilik  
xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab  
chiqaruvchilar narxlari indekslarini  
hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom”ga  
3-ilova

### Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar narxlari indekslarini hisoblash va e‘lon qilish mexanizmi

| Bosqichlar         | Chora-tadbir nomi                                                                          | Amalga oshirish mexanizmi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | Bajarish muddati                                                                  | Mas’ullar                                                                                                                                                   |
|--------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>I bosqich</b>   | Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari katalogi va vaznlar tuzilmasini shakllantirish | 1. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulotlari yetishtirish hajmlari to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlari asosida narx kuzatuvlari uchun korxonalar katalogini shakllantirish;<br>2. Qishloq xo‘jaligi statistikasi ma‘lumotlari asosida korxonalar va mahsulotlar bo‘yicha vazn ulushlari tuzilmasini shakllantirish;<br>3. Qishloq xo‘jaligi korxonalari katalogi va vazn ulushlari bo‘yicha shakllantirilgan ma‘lumotlarni Narxlar statistikasi boshqarmasiga taqdim etish. | yilda bir marotaba, oktabr oyining 20- kuni<br><br>noyabr oyining 10-kuniga qadar | Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi,<br>Narxlar statistikasi boshqarmasi<br><br>Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi |
| <b>II bosqich</b>  | Elektron kuzatuvlarni qabul qilish                                                         | Har oyda e-Stat tizimi orqali 12 narx (14- bobi) kuzatuv shakli asosida respondentlardan kuzatuv ma‘lumotlarini qabul qilib olinishini ta‘minlash.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 12 narx, kuzatuv oyining 25- sanasi                                               | Hududiy statistika boshqarmalari, Narxlar statistikasi boshqarmasi                                                                                          |
| <b>III bosqich</b> | Birlamchi ma‘lumotlar bilan ishlash                                                        | Korxonalardan yig‘ib olingan ma‘lumotlarni umumlashtirish, qayta ishlash va yakuniy ma‘lumotlarni shakllantirish.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | Statistika dasturida belgilangan muddatlarda                                      | Narxlar statistikasi boshqarmasi, Hududiy statistika boshqarmalari                                                                                          |
| <b>IV bosqich</b>  | Yakuniy ma‘lumotlarni foydalanuvchilarga yetkazish                                         | 1. Ko‘rsatkich bo‘yicha statistik byulleten shakllantirish;<br>2. SIAT axborot tizimida yakuniy jadvallarni e‘lon qilish orqali foydalanuvchilarga yetkazish;<br>3. Agentlikning ichki foydalanuvchilariga narx indeksi bo‘yicha yakuniy ma‘lumotlarni yetkazish.                                                                                                                                                                                                                            | Statistika dasturida belgilangan muddatlarda,<br><br>Reja-jadvalga asosan         | Narxlar statistikasi boshqarmasi                                                                                                                            |